




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 7497 tani tashkil etib, 2022- yil 1-dekabrga nisbatan 1301 taga kamaygan (85,2 % ni tashkil etdi). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7480 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **17800,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,1 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **834,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **14801,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,6 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2164,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,6 %**) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>17 800,2</b>	<b>106,1</b>	<b>834,9</b>	<b>104,8</b>	<b>14 801,3</b>	<b>106,6</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	4 041,8	105,0	422,2	91,5	3 462,1	107,0
Shahrisabz	1 633,8	105,9	23,7	62,5	1 554,3	107,0
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	697,6	107,8	21,8	235,2	556,0	106,6
Dehqonobod	677,8	103,1	5,6	87,0	605,9	103,7
Qamashi	1 102,4	105,1	13,0	92,7	934,8	105,7
Qarshi	576,6	104,5	7,3	34,3	532,4	107,4
Koson	1 772,0	108,3	84,2	173,2	1 620,8	106,6
Kitob	1 120,8	105,9	13,9	32,6	951,6	109,4
Mirishkor	613,1	106,8	5,1	86,9	592,7	107,1
Muborak	541,4	106,4	44,9	138,0	399,9	104,7
Nishon	616,5	103,8	5,9	76,8	498,4	104,6
Kasbi	814,0	107,2	32,2	384,8	720,5	104,2
Ko'kdala	438,6	106,6	0,2	-	317,1	107,5
Chiroqchi	1 636,0	106,8	67,4	124,1	806,6	109,0
Shahrisabz	656,1	110,7	76,9	228,8	511,0	104,0
Yakkabog'	861,6	105,0	10,6	80,9	737,1	106,2

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (**110,7 %**), Koson (**108,3 %**), G'uzor (**107,8 %**) Kasbi (**107,2 %**), Chiroqchi (**106,8 %**), Mirishkor (**106,8 %**) va Ko'kdala (**106,6 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-noyabr, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlarining eng past ko'rsatkichi 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,4 %** ni yoki **11019,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2023- yil yanvar-noyabr oylari)



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **22,7 %** bilan **4041,8 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Ko'kdala tumani **2,5 %** bilan **438,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **14801,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,6** %ga ko'paydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,2** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,8** % ga ko'paydi va **834,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,7** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ko'kdala (**99,9 %**), Mirishkor va Dehqonobod tumanlari (**99,2%**), Nishon (**99,0%**), Qamashi, Kitob va Yakkabog' tumanlari (**98,8%**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **4,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**10,4 %**), Shahrizabz (**11,7 %**), Muborak (**8,3 %**), Koson (**4,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>5 069,8</b>	<b>103,8</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	13 875,0	102,8
Shahrisabz	11 221,1	104,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3 182,3	105,3
Dehqonobod	4 303,3	101,0
Qamashi	3 812,0	102,8
Qarshi	2 151,6	102,0
Koson	5 764,6	105,7
Kitob	4 027,2	103,8
Mirishkor	4 797,1	104,6
Muborak	5 859,4	104,7
Nishon	3 754,8	101,5
Kasbi	3 874,6	104,9
Ko'kdala	2 368,3	103,0
Chiroqchi	6 208,9	104,3
Shahrisabz	2 821,9	108,9
Yakkabog'	3 090,4	102,9

2023- yilning yanvar-noyabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5069,8** ming so'mni (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,8** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi shahri (**13875,0** ming so'm), Shahrisabz shahri (**11221,1** ming so'm) va Chiroqchi tumani (**6208,9** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2164,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,2** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1010,0** mlrd. so'mni (**101,3** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1154,0** mlrd. so'mni tashkil etdi ( **104,9%**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2164,0</b>	<b>103,2</b>	<b>1010,0</b>	<b>101,3</b>	<b>1154,0</b>	<b>104,9</b>

### *shaharlar:*

Qarshi	157,4	104,9	157,4	104,9	-	-
Shahrisabz	55,9	105,4	55,9	105,4	-	-

### *tumanlar:*

G'uzor	119,7	103,0	47,6	103,5	72,1	102,8
Dehqonobod	66,2	100,1	28,4	100,6	37,8	101,8
Qamashi	154,7	102,8	60,4	101,3	94,3	102,6
Qarshi	37,0	105,6	0,0	105,0	37,0	106,6
Koson	67,0	101,0	32,0	102,7	35,0	106,2
Kitob	155,3	106,0	62,3	104,7	93,0	105,1
Mirishkor	15,3	102,9	6,8	100,5	8,5	103,8
Muborak	96,6	102,4	46,7	102,9	49,9	103,2
Nishon	112,2	102,1	51,6	101,6	60,6	103,9
Kasbi	61,4	102,9	30,0	102,4	31,4	102,7
Ko'kdala	121,3	104,3	50,1	103,9	71,2	104,0
Chiroqchi	762,0	103,3	236,7	103,9	525,3	102,2
Shahrisabz	68,2	100,5	30,2	101,4	38,0	101,6
Yakkabog'	113,9	101,0	113,9	101,5	-	100,7

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1010,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm, yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**561,8** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>561,8</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>166,5</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>44,2</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>70,5</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	<b>26,7</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (pishloq, brinza va boshqalar)	<b>26,9</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>23,8</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>10,1</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>52,7</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>20,7</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>6,1</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>-</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1154,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **790,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **308,5** mlrd. so‘mni, otlar – **48,4** mlrd. so‘mni, parrandalar – **6,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	507,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	219,3
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	63,3
	Qo‘ylar	178,2
	Otlar	48,4
	Echkilar	130,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	4,0
	Tovuqlar	2,6
	Quyونlar	-
	Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1501 tani tashkil etib, 2022- yil 1- dekabr holatiga nisbatan 305 taga kamaygan va o'sish sur'ati 83,1 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1500 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,7 %** ni tashkil etib, **497,8** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,1 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **97,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>497,8</b>	<b>110,1</b>	<b>14,2</b>	<b>65,1</b>	<b>483,7</b>	<b>112,3</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	204,1	110,8	12,9	63,4	191,2	116,7
Shahrisabz	59,2	110,8	-	-	59,2	110,8
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	40,4	108,8	1,3	89,9	39,1	109,5
Dehqonobod	6,2	105,2	-	-	6,2	105,2
Qamashi	7,0	109,5	-	-	7,0	109,5
Qarshi	18,8	106,6	-	-	18,8	106,6
Koson	13,7	107,6	-	-	13,7	107,6
Kitob	30,0	111,1	-	-	30,0	111,1
Mirishkor	4,1	100,1	-	-	4,1	100,1
Muborak	29,7	105,4	-	-	29,7	105,4
Nishon	7,7	108,8	-	-	7,7	108,8
Kasbi	6,6	112,5	-	-	6,6	112,5
Ko'kdala	5,9	-	-	-	5,9	
Chiroqchi	30,5	102,3	-	-	30,5	102,3
Shahrisabz	5,2	113,8	-	-	5,2	113,8
Yakkabog'	28,7	101,6	-	-	28,7	101,6

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- dekabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2547,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,6** % o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1368,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **69,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1478,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **387,5** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2 847,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2 582,7	90,7
Shahrisabz	8,3	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2,6	0,1
Dehqonobod	3,9	0,1
Qamashi	1,1	0,0
Qarshi	158,0	5,5
Koson	8,0	0,3
Kitob	18,7	0,7
Mirishkor	6,5	0,2
Muborak	5,0	0,2
Nishon	6,1	0,2
Kasbi	1,2	-
Ko'kdala	1,8	0,1
Chiroqchi	24,6	0,9
Shahrisabz	0,6	-
Yakkabog'	18,7	0,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri ( **2582,7** mlrd. so'm), Qarshi (**158,0** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**24,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda**



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5727,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,9 %** ga ko‘paydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4987,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,1 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kasbi tumani (**144,0 %**) da kuzatildi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2281** tani tashkil etib, 2022- yil 1- dekabr holatiga nisbatan **97** taga kamaygan, yoki **95,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **15** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2266** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>5 069,7</b>	<b>106,1</b>	<b>678,8</b>	<b>83,7</b>	<b>4390,9</b>	<b>109,8</b>
<b>shaharlar:</b>						
Qarshi	2 443,8	109,9	355,6	99,1	2 088,1	112,0
Shahrisabz	519,8	112,9	-	-	519,8	112,9
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	170,9	108,3	-	-	170,9	108,3
Dehqonobod	49,2	101,8	-	-	49,2	101,8
Qamashi	115,3	102,8	-	-	115,3	102,9
Qarshi	497,8	110,8	112,9	132,3	384,9	105,8
Koson	508,1	93,0	78,6	54,4	429,5	106,9
Kitob	315,0	106,3	-	-	315,0	106,3
Mirishkor	67,2	95,7	-	-	167,2	110,2
Muborak	90,6	100,3	4,1	50,6	86,5	105,2
Nishon	102,7	103,7	-	-	102,7	103,7
Kasbi	222,3	137,0	187,3	144,0	35,1	108,8
Ko'kdala	71,1	101,9	-	-	71,1	101,9
Chiroqchi	195,3	84,1	0,6	1,0	194,7	115,5
Shahrisabz	136,6	108,4	-	-	136,6	108,4
Yakkabog'	121,3	109,6	-	-	121,3	109,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. (75) 221-44-28**